

**Buxgalteriya hisobini yuritish xizmatlarini ko'rsatuvchi
Autorsing tashkilotlarini Reestrga kiritish bo'yicha
xizmatlar ko'rsatish to'g'risidagi
OFERTA SHARTNOMASI**

Toshkent shahri

“02” iyun 2026 yil

“O'ZBEKISTON SOLIQ MASLAHATCHILARI PALATASI QOSHIDAGI “ME'YoR” ILMIY AXBOROT MARKAZI” MChJ (keyingi o'rinlarda — “**Markaz**”) ushbu Oferta shartnomasi orqali buxgalteriya hisobini yuritish xizmatlarini ko'rsatuvchi autorsing tashkilotlariga (keyingi o'rinlarda — “**Autorsor**”) quyidagi shartlar asosida xizmat ko'rsatishni taklif qiladi.

Markaz Autorsor tashkiloti to'g'risidagi ma'lumotlarni O'zbekiston Soliq maslahatchilari Palatasi tomonidan tasdiqlangan “Shtatida soliq maslahatchilar va/yoki soliq maslahatchilarni tayyorlash dasturi bo'yicha kurslarni muvaffaqiyatli tamomlagan mutaxassislari bo'lgan, buxgalteriya hisobini yuritish xizmatlarini ko'rsatuvchi Autorsing tashkilotlari reestrini shakllantirish va yuritish Tartibi”da (keyingi o'rinda — “**Tartib**”) belgilangan qoidalar asosida O'zbekiston soliq maslahatchilari palatasining “Autorsing tashkilotlari Reestri”ga (keyingi o'rinda — “**Reestr**”) kiritishni ta'minlaydi.

Mazkur Oferta Markazning O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367, 369-moddalariga asosan nomuayyan shaxslar doirasiga yo'llangan, unda ko'rsatilgan shartlarda shartnoma tuzish niyatini ifoda etadigan ommaviy taklifi hisoblanadi va Autorsor tomonidan belgilangan yig'im to'langan paytdan boshlab akseptlangan hisoblanadi.

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Markaz Autorsorni **Reestr**ga kiritish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni qabul qilish, ko'rib chiqish va rasmiylashtirish bo'yicha barcha xizmatlarni ko'rsatadi.

1.2. Autorsor mazkur shartnoma shartlariga muvofiq belgilangan yig'imni to'lash majburiyatini oladi.

2. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

2.1. Markaz hujjatlarda kamchiliklar mavjud bo'lganda ularni bartaraf etishni so'rash va noto'g'ri yoki soxta ma'lumotlar taqdim etilganda arizani ko'rib chiqishni to'xtatib turish huquqiga ega.

2.2. Markaz o'z zimmasiga quyidagi majburiyatlarni oladi:

Autorsordan kelib tushgan ariza va hujjatlarni qabul qilish;

taqdim etilgan hujjatlarni besh ish kuni ichida ko'rib chiqish;

zarur hollarda hujjatlardagi kamchiliklar haqida xabar berish;

hujjatlar to'liq taqdim etilganda Reestrga kiritish yuzasidan O'zbekiston Soliq maslahatchilari palatasiga iltimosnoma kiritish;

Tartibda belgilangan muddatda Autorsorni Reestrga kiritilishini ta'minlash;

Autsorser mazkur Tartibning 3-bandiga javob berganda unga Guvohnoma berilishini ta'minlash;

2.3. Autsorser Reestrda kiritish jarayoni bo'yicha ma'lumot olish va hujjatlardagi kamchiliklarni bartaraf etib, qayta taqdim qilish huquqiga ega.

Autsorser o'z zimmasiga quyidagi majburiyatlarni oladi:

Tartibga muvofiq, Autsorser:

belgilangan miqdordagi yig'imni o'z vaqtida to'lash;

Markazga ariza va Reestrda kiritilishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etishi;

har yili belgilangan yig'imlarni to'lab borishi;

taqdim etilgan ma'lumotlarning haqqoniyligi uchun javob berish.

3. XIZMAT HAQI VA TO'LOV TARTIBI

3.1. Autsorserni 2026 yil uchun Reestrda kiritish uchun yig'im miqdori mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining (MXTEKM) ikki baravari etib belgilanadi.

3.2. To'lov quyidagi rekvizitlar bo'yicha amalga oshiriladi:

“O‘zbekiston Soliq maslahatchilari palatasi qoshidagi “Me‘yor” ilmiy axborot markazi” MChJ.

Manzil: Toshkent shahri, T. Shevchenko ko'chasi, 8-uy

H/r: 20208000804438102001

Bank: “Aloqabank” Mirobod filiali

MFO: 01091

STIR: 205847194

Direktor



Muradov S.I.

